
**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«O‘ZBEK TILINI DUNYO MIQYOSIDA KENG
TARG‘IB QILISH BO‘YICHA HAMKORLIK
ISTIQBOLLARI»
mavzusidagi
xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari**

2020-yil 19-20-oktabr

TOSHKENT - 2020

85	Mavlyanov Sanjar O'zbek tilida diplomatik terminlar o'rtasidagi leksik – semantik xususiyatlar	340
86	Абдуллаева Гәүһәр Төрки телләрдәге полипредикатив конструкцияләр	345
87	Hojiyeva Nigina Olma leksemasi xususida	347
88	Hasanov Abdumannon Dialektlar – til leksikasini boyitish manbayi	353
V SHU'BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA		
89	Mengliyev Baxtiyor O'zbek tili taraqqiyoti va rivojlanish omillari	358
90	Mengliyev Baxtiyor, Xamroyeva Shahlo Turkiy tillardagi morfologik analizatorlar xususida	360
91	Qurbonova Munavvara Abdujabborovna O'zbek nutq sintezatori uchun leksikografik manbalar ta'minoti	364
92	Ernazarova Manzura, Bazarbayeva Navbahor Grammatik ma'noning lisoniy va pragmatik omillar hamkorligida o'rganilishi	366
93	Azimova Iroda Alisherovna O'zbek tilidagi agrammatik afaziyada fe'llarning tushunilishi	371
94	Gatiatullin Ayrat, Abduraxmonova Nilufar O'zbek tilining lingvistik ma'lumotlar bazasini shakllantirishda "turkiy morfema" portali instrument sifatida	376
95	Xamroyeva Shahlo O'zbek tilshunosligida axborot-qidiruv tizimlari lingvistik ta'minoti borasidagi ishlar haqida	385
96	Eshmuminov Asqar Jahon va o'zbek tilshunosligida korpus lingvistikasining tadrijiy taraqqiyoti	388
97	Yo'ldoshev R. A. O'zbek tilida nomsiz, o'gay qo'shimchalarning kategorial o'rni haqida	392
98	Mo'ydinov Qodirjon O'zbek tilidagi ayrim terminlarning sud nutqida qo'llanishi	396
99	Ibragimova Guli Toirovna O'zbek tili milliy korpusining interfeysini shakllantirish algoritmi	398
100	Gulyamova Shaxnoza Omonimlarning kompyuter lingvistikasidagi tadqiqi	401
101	G'aybullayeva Nafisa Tilshunoslik va tibbiyot integratsiyasiga oid ayrim mulohazalar	408
102	Turdaliyeva Dilfuza Soloxidinovna Xalq maqollari mualliflik variantlarining badiiy nutqdagi o'rni	409
103	Mengliyeva Munira O'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishning amaliy masalalari	411
104	Abdullayeva Oqila Korpus lingvistikasi va soha rivojidadagi o'ziga xosliklar	407
105	Ahmadova Umida Perifrazalarning milliy-etnik xususiyatlari	411

Amalga oshirilayotgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, korpuslar til nazariyasi emas, balki ma'lumotlarni ham miqdor, ham sifat jihatidan ko'rish va tahlil qilish usulidir. Korpus-lingvistik yondashuvdan til xususiyatlarini tavsiflash va turli lingvistik doiralarda shakllangan har xil farazlarni sinab ko'rish uchun foydalanish mumkin, ya'ni tabiiy ravishda uchraydigan til namunalari yordamida tilni o'rganadi. Bu tahlillar ixtisoslashtirilgan dasturiy ta'minot bilan amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Курузов А.Б. Корпусная лингвистика. 2015. http://tc.utm.ru/files/corpus_5.pdf
2. McCarthy, O'Keefe A. What are corpora and how have they evolved?: The Routledge handbook of corpus linguistics. – London and New York, 2010. 3-4
3. McEnery T., Hardie A. Corpus linguistics: method, theory and practice. – New York, 2012. 225-226
4. Flowerdew L. Corpus-based research and pedagogy in EAP: From lexis to genre. Language Teaching / Volume 48 / Issue 01 / January 2015, pp 99 – 116. http://journals.cambridge.org/abstract_S0261444813000037
5. McEnery, T. & Hardie, A. Corpus linguistics: Method, theory and practice. – New York, 2012
6. Da Silva L.G. Academic vocabulary: a corpus linguistics study on how Brazilian students write academic English. https://englishagenda.britishcouncil.org/sites/default/files/attachments/mda2017_special_comme ndation_larissa_goulart_da_silva_university_of_warwick.pdf
7. M.Hundt, N.Nesselhauf, C.Biewer. Corpus linguistics and the web. – Amsterdam-New York, 2007. (https://books.google.co.uz/books?id=SdsA_xydxycQC&pg=PA69&dq=corpus+linguistics&hl=r u&sa=X&ved=0ahUKEWjco42UzqrkAhVBw4sKHSCACu84ChDoAQhVMAY#v=onepage&q =corpus%20linguistics&f=false)
8. Vaughan E., O'Keefe A. Corpus analysis. 2015 https://www.researchgate.net/publication/291344603_Corpus_Analysis

Perifrazalarning milliy-etnik xususiyatlari National-ethnic features of periphrases

*Ahmadova Umida Shavkatovna**

Annotation: *The article analyzes the national-ethnic features of the periphrastic units, which have become the main means of social communication, and their practical significance on the basis of evidence-based examples.*

Key words: *periphrasis, figurative expression, social, communication, national-ethnic, language, linguistics, vernacular, culture, attitude.*

*Buxoro davlat universiteti, O'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi, u.s.ahmadova@buxdu.uz

Kishilik jamiyati taxminan ikki million yillik murakkab tarixga ega bo'lib, jahondagi har bir xalq, millat, elat asrlar silsilasining muayyan davrlarida shakllanib, o'ziga xos ijtimoiy taraqqiyot yo'lini bosib o'tganki, bu bevosita o'zbek millatiga ham tegishli. Tarixdan ma'lumki, dunyodagi har bir millatning, jumladan, o'zbeklarning ham tafakkuri, ruhiy qiyofasi o'ziga xos tarixiy, etnik tabiiy-iqlimiy shart-sharoitlar doirasida shakllangani bois uning jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-siyosiy hodisalar, tarixiy jarayonlarga bo'lgan munosabati ham turli bo'lishi shubhasiz. Zero, milliy o'ziga xosliklar asrlar davomida ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy jarayonlar, tabiiy geografik o'mashuv, o'zaro etnomadaniy aloqalar, diniy mansubliklar asosida qaror topadi; xalqning ruhiy karashlari negizida qadimiy an'analar, urf-odatlar va marosimlar shakllanadi. Xalq, millat, elat hayotida ro'y bergan istalgan o'zgarishlar: yuksalishlari evrilishlargacha barcha-barchasi tilda o'z aksini topadi.

Til xalqning bebaho mulki, nodir va nozik boyligi ekanligi ma'lum. Unda xalqning dunyoqarashi, ruhiyati, takomil tadriji, asrlarga tengdosh tarixi, xullas, millatning butun bo'y-bastiyu aqliy-ma'naviy olami qatrada quyosh aks etganiday o'z tajassumini topadi.

Tilning muhtasham xazinasida tasviriy ifodalar deb umumlashtiriladigan muhim bir qatlam borki, u xalqning tarixi, madaniyati, urf-odatlarini, tegishli hududning geografik va iqlim xususiyatlari, qisqasi, butun xalqning milliy-etnik jihatlari haqida ishonchli ma'lumotlar beradi.

Kuzatishlarimiz asosida ayta olamizki, o'zbek milliy perifrazalari etnik jihatdan ham farqlanadi. Bu farqlanish asosida uning quyidagi tiplarini ajratish mumkin:

1. *Qavm-sulolaviy asoslarga ko'ra tiplar.*
2. *Madaniy-estetik darajalarga ko'ra tiplar.*
3. *Etno-hududiy tiplar.*
4. *Diniy konfessional tiplar.*

Quyida biz mazkur tiplarning qavm-sulolaviy asoslarga ko'ra xususiyatlari xususida batafsil to'xtalishga harakat qilamiz.

Jahon tilshunosligida, shuningdek, o'zbek tilshunosligida ham perifrazalar borasida ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan bo'lishiga qaramay nutqdagi mazkur voqelik hali me'yor darajasida o'rganilgani yo'q. Jumladan, «Perifraza qaysi sath birligi?» degan savolga hamon asosli javob qaytarilmaganligi, hozirgacha ularning idiomatik ma'noli turi frazema nomi ostida, nominativ xususiyatiga ko'ra leksikologiya tarkibida yoki shaklan so'z birikmasining alohida ko'rinishi tarzida o'rganilib kelinayotganligining o'ziyoq bu borada talay chalkashliklarni keltirib chiqarmoqda. Hatto tarkibida idiomatik ma'no kuzatilmaydigan perifrazalarni tarkibli atama va murakkab terminlar paradigmasiga tegishli sof turg'un so'z birikmalari maqomida talqin etish hollari ham uchraydi [Shodiyev, 2017: 20-30].

Perifrazalarning sintaktik tabiati, komponentlari o'rtasidagi munosabat masalalari tadqiqi ham o'z yechimini kutmoqda. O'zbek milliy perifrazalarining etnik tiplari haqida ham shunday deyish o'rinni. Perifrazalarning qavm-sulolaviy asoslarga ko'ra tiplarini ajratishdan avval *qavm, sulola* so'zlarining lug'aviy ma'nosiga biroz e'tibor qaratamiz. «O'zbek tilining izohli lug'ati» (O'TIL)da qavm so'ziga shunday izoh berilgan:

QAVM (arabcha – xalq, millat; kishilar to'dasi, guruhi). 1. Bir avloddan tarqalgan, o'zaro qarindoshlik munosabatlari bilan bog'langan kishilar birlashmasi; urug', aymoq, qabila. *Garchi sizning qipchoq qavmiga mansubiyatingiz bo'lsa ham, musulmonqulni haydashda bizga unutilmaslik... xizmatlar qildingiz* (A.Qodiriy, O'tkan kunlar).

2. *Din*. Bir masjidida ibodat qiluvchi kishilar, bir masjidning nomozxonlari va ularning har biri. *Jilovxonada namoz kutib o'tirgan qavmlar ichida Samad bo'qoq, Shukur so'filar ham ko'rinar edilar.* (A.Qodiriy, Mehrobdan chayon).

3. Kishilarning ma'lum bir ish va b. jihatdan bo'lgan birligi, guruhi; toifa. *Haligi qavmdagi mualliflar endi oshkora oshna-og'aynigarchilik, lo'ttibozlik, guruhbozlik yo'liga o'tib oldi* (Gazetadan).

4. «Qatorida» ma'nosini bildiradi. ...*Zokir temirchi g'oziyning qilichidan o'lgan, shuning uchun u kofir qavmida ketgan emish* (S.Anorboev, Oqsoy) [O'TIL, 2007: 7].

Jahon ilm-fani, xususan, o'zbek, yapon, xitoy olimlari tomonidan so'nggi yillarda olib borilgan izlanishlar kuch, qudrat, yetuklik, ulug'vorlikni anglatuvchi «turk» atamasi bundan kamida 3000 yil burungi bitiklarda tilga olinganini isbotlamoqda. Biz turkiy qavmlarning kelib chiqish tariximiz esa undan-da qadimiyroqdir. Turkiy tilshunoslik ilmini XI asrdayoq boshlab bergan, «Devonu lug'otit turk» asari bilan butun dunyoda shuhrat qozongan Mahmud Koshg'ariy turkiylarga ko'rkamlik, yoqimlilik, odoblilik, kattalarga hurmatda bo'lish, so'zining ustidan chiqish, kamtarlik, botirlik xosligini hamda tili boyligini alohida urg'ulab o'tgan edi.

Turkiy xalqlarning kishilik tarixidagi o'ziga xos o'rni va ulkan ta'sirini hech kim inkor etolmaydi. Alp Er To'nga (Afrosiyob), Tomir xotun (To'maris), Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Saroymulxonim (Bibixonim), Sulton Sulaymon singari bir qavmga xos buyuk shaxslarni bilmagan, ular haqida eshitmagan kishi kamdan-kam topilsa kerak. Shu bilan birga, turkiy xalqlarning kishilik tarixidagi kuch-qudrati, yetuklik va ulug'vorligi o'tmishdagi buyuk davlat arboblari, sarkardalari, saltanatlarini bilangina emas, balki, eng avvalo, o'z yurtlari barobarida butun insoniyat yuksalib borishiga tengsiz va ulkan ulush qo'shgan olimu fozillar iste'dodi va mehnati orqali belgilanadi, desak, adashmaymiz.

SULOLA (arabcha – nasl, zot, zurriyot; avlod, bolalar; urug', oila). 1. Bir avloddan tarqalib, vorislik, valiahdlik huquqiga asosan birin-ketin taxtga o'tirgan podshohlar, amirlar, xonlar va sh.k.; dinastiya. – *Somoniylar sulolasi. G'aznaviylar sulolasi...*

2. Ish-faoliyat an'analarini, mahorat sirlarini davom ettiruvchi avlod, nasl. *Hindiston kinematografiyasining dovrug'iga dovrug' qo'shayotgan san'atkorlar orasida Kapurlar sulolasi alohida ajralib turadi* (Gazetadan) [O'TIL, 2007: 585].

Demak, qavm ham, sulola ham qon-qarindoshlik asosida birlashishi yoki qon-qarindosh bo'lmasa-da, muayyan faoliyat, kasb-kor, an'anani bajaruvchilar, davom ettiruvchilar sifatida muayyanlashishi mumkin ekan. Biz tahlilga tortgan o'zbek milliy perifrazalari yuqori tabaqali qavmlar, sulola vakillari, shuningdek, oddiy mahalliy qavmlar nutqida farqlanishini kuzatamiz. Chunonchi, Shoirlar qavmiga tegishli ulug' ajdodlarimiz – hazrat mir Alisher Navoiy, Boborahim Mashrab, Zahiriddin Muhammad Boburlarning nomlariga nisbatan qo'llanilgan perifrastik birliklar turli davrlarda paydo bo'lgan yoki keng iste'molga kirgan bo'lsa-da, ularning bizgacha yashab kelayotganligi fikrimizni dalillaydi.

Husayn Boyqaroning «Risola»sida ham hazrat Navoiyning turkiy tildagi ijodi, xususan, she'riyati hamda «Xamsa» asariga yuksak baho berilib, buyuk shoir «so'z mulkinging kishvaristoni, sohibqironi» deb ulug'lanadi [Yusupova, 2013: 272].

O'zbek xalqining buyuk siymolaridan biri – mutafakkir, olim, g'azal mulkinging sultoni, o'zbek adabiy tilining asoschisi Alisher Navoiyni barcha davrlarda ham butun turk dunyosi «shams ul-millat» ya'ni millat quyoshi deb e'zozlab kelgan [G'aniyeva, 2011].

Agar bu zotni avliyo desak, u – avliyolarning avliyosi, mutafakkir desak – mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak – shoirlarning sultonidir. Inson qalbining quvonchu qayg'usini, ezgulik va hayot mazmunini Navoiydek teran ifoda etgan shoir jahon adabiyoti tarixida kamdan kam topiladi (Islom Karimov).

Ishonch bilan aytamanki, o'rta asrlarning Renessans shoiri Alisher Navoiydir (Iso Habbibeyli, Ozarbayjon akademigi) [Habbibeyli, 2017].

Mustaqil mamlakatimiz yoshlarini barkamol inson qilib tarbiyalashda hazrat Navoiy asarlari muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman, Alisher Navoiy barchamizni ruhiy poklashga, ma'nan yuksaltirishga qodir bezavol ma'naviy qudratdir [Erkinov, 2013: 272].

«Alisher Navoiy: qomusiy lug'at» milliy lug'atshunoslikda badiiy so'zning neytral ma'nosidan tashqari, uning matndagi ma'no tovlanishlarini ham ko'rsatib berish yo'lida qo'yilgan ilk qadamdir. ...bu yirik tadqiqotda ham ulug' shoir ijodida qo'llanilgan tushuncha va so'zlarning o'ndan bir qismigina izohini topgan. Qomuslarga sig'mas daho qo'llagan so'z,

ibora, maqol va tushunchalar ham izohlanishi kerakligi aʼen. Demak, bu yoʻldagi ishlar hali davom ettirilishi lozim [Yoʻldoshev, 2017].

Bugun **sheʼriyat mulkining sultoni, ulugʻsoʻz sanʼatkori** Alisher Navoiy tavallud topgan kun. Bugun nafaqat Oʻzbekistonda, balki mutafakkir ashʼorlari kirib borgan har bir mamlakatda navoiyxonlik, gʻazalxonlik tadbirlari oʻtkazilmoqda (Gazetadan).

Alisher Navoiy xalqimizning ongi va tafakkuri, badiiy madaniyati tarixida butun bir davrni tashkil etadigan buyuk shaxs, milliy adabiyotimizning tengsiz namoyandasi, millatimizning gʻururi, shaʼnu sharafini dunyoga tarannum qilgan **oʻlmas soʻz sanʼatkoridir** (Matbuotdan).

Shuningdek, manbalarda mir Alisher Navoiyga nisbatan ishlatilgan jahonshumul tafakkur sohibi, qomusiy daho kabi koʻplab perifrazalarga duch kelamiz. Qoʻllanilgan perifrazalarning birortasi ham okkazional xarakterga ega emas. Ularning deyarli barchasi nutqdan tilga koʻchgan tasviriy ifodalardir.

Soʻz mulkining sohibqironi, gʻazal mulkining sultoni, oʻzbek adabiy tilining asoschisi, millat quyoshi, shoirlarning sultoni, renessans shoir, qomuslarga sigʻmas daho, sheʼriyat mulkining sultoni, ulugʻ soʻz sanʼatkori, oʻlmas soʻz sanʼatkori, jahonshumul tafakkur sohibi, qomusiy daho, bezavol maʼnaviy qudrat – **Alisher Navoiy**.

Badiiy adabiyotda ilohiy ishq kuychisi perifrazasi ikki zabardast mumtoz shoir – Jaloliddin Rumiy va Boborahim Mashrabga nisbatan ishlatiladi. Hazrat mir Alisher Navoiy «Mahbul-qulub» («Koʻngillarning sevgani») asarida qalam ahlini uch toifaga ajratadi va shu oʻrinda Rumiy hazratlarini ilohiy ishq kuychisi, buyuklikning koʻz ilgʻamas choʻqqisi, deb sharaflaydi [Navoiy, 1998: 24-25]. Ushbu soʻzlar qariyb olti asr oʻtibdiki, oʻzini oqlab kelmoqda.

Mashrabshunos olim Zamira Isʼhoqova shunday yozadi: «Soʻz mulkining sultoni, ulugʻ oʻzbek shoiri Alisher Navoiydan keyin Mashrab oʻz sheʼrlarida yana bir bor turkiy nazmning naqadar buyukligi va oʻlmasligini koʻrsatgan. Mashrab Ibrohim Adham va Mansur Hallojni goyibdan piri komil deb bilgan **ilohiy ishq kuychisi edi**» [Isʼhoqova, 2011: 44].

Shoh va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur haqida Javoharlarʼ Neru «Hindistonning kashf etilishi» kitobida shunday yozgan edi: «Bobur **dilbar shaxs** edi. Uygʻonish davrining ajoyib sultoni, kuchli, tadbirkor kishi boʻlib, sanʼatni, adabiyotni, goʻzallikni sevardi». Shundan beri Zahiriddin Muhammad Bobur nomi bilan unga nisbatan qoʻllanilgan **dilbar shaxs** perifrazasi yonma-yon yuradi.

Nutqimizda zarur paytda ishlatiladigan sohibqiron donishmand (Amir Temur), temuriy shahzoda (Baddiulzamon, Moʻmin Mirzo va b.), shoh gʻoziy, ikki taraflama ulugʻ (Husayn Boyqaro); temuriy alloma (Mirzo Ulugʻbek); padarkush shahzoda (Abdullatif); tibbiyot ilmining sultoni, buyukhakim (AbuAli IbnSino); shayxlar shayxi (Xoʻja Ahror Valiy); ulugʻ donishmand (Suqrot) kabi koʻplab shaxs nomlari bilan bogʻliq tasviriy ifodalar ham qavm – sulolaviy perifrazalar tarkibiga kiradi.

Oʻzbek milliy perifrazalarining yuqori tabaqali qavmlar va oddiy mahalliy qavmlar nutqida farqlanishini taʼkidlagan edik. Buning yorqin misolini P.Qodirovning «Yulduzli tunlar», «Avlodlar dovoni» tarixiy romanlaridagi quyidagi misollar orqali kuzatamiz:

Samarqand podshosi Qoʻqonni bosib olib, qoʻshiniga talatgan va Margʻilonga hujum qilgan edi. Bosqinchilar shaharu qishloqlarni talash bilan qanoatlanmay, koʻhlik qizlarni choʻrilikka olib ketishar edi. Buning hammasini eshitgan odamlar yovdan qochib, tinch joy izlab bormoqda edilar.

– Ulusning shoʻri qursin! – dedi Tohir. – **Kasofat podsholar** urushmay turolmasa. Biridan qochsang, boshqasiga tutilsang. Undan koʻra qochmaymiz! Tavakkal. Peshonaga bitilgani boʻlur! [Qodirov, 2008: 3].

– Yo pok parvardigor! Oxirzamon degani shumikin, mulla Fazliddin?

– Bilmadim, pochcha. Har qalay, **yomon tojdorlarning** zamonasi oxirlab qolayotganga oʻxshaydir. Koshki, oʻzlari bilan oʻzlari olishib, bizni tinch qoʻysalar! Urushning butun jabru jafosi el-ulusning boshiga tushadir.

– *Sho'rimiz bor ekan-da!* [Qodirov, 2008: 6].

Asarda oddiy mahalliy qavm vakili bo'lgan Tohirning nutqida *kasofat podsholar, yomon tojidorlar* kabi yuqori tabaqaga nisbatan hurmatdan yiroq bo'lgan perifrazalar uchraydi.

Tashqari eshikdan ta'zim qilib kirgan choshnagir ayol ovozi qo'rquv bilan pasaytirib xabar berdi:

– *Osmonda yulduzlar siyrak qoldi. Hademay tong yorishur. Hazrati oliy saharliksiz qolurlarmu?*

Tong otib, azon aytilgandan so'ng ro'za o'zkuchiga kiradi, hech kim hech narsa yeb-ichishi mumkin bo'lmay qoladi. Uzun va issiq yoz kunida podshohni saharliksiz qoldirish begimlar uchun o'zlari och-nahor qolishlaridan qo'rqinchliroq edi [Qodirov, 2008: 13].

Yo'g'on soch o'rimlarining nozik bo'yin ortida to'lg'anib turishi Xonzodabegimga zavq berdi:

– *Hamidabonu, sizni ko'rib bir bayt she'r yodimga tushdi. Aytaymi?*

– *Ayting, hazrat begim, jon qulog'im bilan eshitgaymen!* [Qodirov, 2008: 85].

Saroydagi oliy tabaqalilar, shuningdek, garchi o'zi oddiy mahalliy qavm vakili bo'lsa-da, saroyda xizmat qilayotganlar nutqida hazrati oliylari, onhazrat janoblari, hazrat begim, valiahd shahzoda, sadoqatli qulingiz kabi murojaat shaklidagi tasviriy ifodalar ishlatiladi. Zero, perifrazalar yordamida narsa/hodisa kishi tafakkurida yanada xayoliy, qiziqarli va jonli gavdalanadi. Perifrazadan foydalanganda kishi ob'ekt yoki hodisaning tavsifiga tanish bo'lgan xarakterlovchi belgilarning butun to'plamini qo'shadi. Agar yozuvchi podsho so'zi o'rnida *hazrati oliylari, onhazrat janoblari, malika so'zi o'rnida hazrat begim, Humoyun o'rnida valiahd shahzoda* kabi perifrazalarni qo'llamaganda tasvirlardagi joziba yo'qolar va asar bu darajada o'qimishli bo'lmas edi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Erkinov A. Ulug' shoirni anglash yo'lida (So'z boshi) // Yusupova D. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (A.Navoiy davri). – T.: Akademnashr, 2013.– B. 272.
2. Habbibeyli I. Alisher Navoiy – umumturkiy adabiyotning buyuk vakili // «Alisher Navoiy ijodiy merosining umumbashariyat ma'naviy-ma'rifiy taraqqiitidagi o'rni» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Navoiy, 2017.
3. Is'hoqova Z. Mashrab (risola). – Toshkent: ABU MATBUOT-KONSALT nashriyoti, 2011. – B. 44.
4. Navoiy A. Mahbul-qulub / Mukammal asarlar to'plami. 20 jildlik. 14-jild. – T.: Fan, 1998. – B. 24-25.
5. Qodirov P. Yulduzli tunlar. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2008. – B. 304.
6. Qodirov P. Humoyun va Akbar. – Avlodlar dovoni. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 2008. – B. 85.
7. Yusupova D. O'zbek mumtoz adabiyoti tarixi (A.Navoiy davri). – T.: Akademnashr, 2013.– B. 272.
8. Yo'ldoshev Q. Qomuslarga aylangan ijod // «Alisher Navoiy ijodiy merosining umumbashariyat ma'naviy-ma'rifiy taraqqiitidagi o'rni» mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjumani materiallari. – Navoiy, 2017.
9. G'aniyeva S. «Majolisun-nafois»ning xorijdagi tarjimalari va nashrlari // «Alisher Navoiy ijodi va ma'naviy merosining olamshumul ahamiyati» mavzuidagi xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari. – Toshkent: – O'zbekiston, 2011.
10. Shodiyev S.E. Parafrazalar va ularning derivatsion xususiyatlari // Xorijiy filologiya J. – Samarqand, 2017. – B. 26-30.
11. www.ziyouz.com kutubxonasi. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Q. – B. 304.
12. www.ziyouz.com kutubxonasi. O'zbek tilining izohli lug'ati – S. – B. 585.